

**QADIMIY ARXITEKTURA YODGORLIKLARINI REKONSTRUKSIYA
QILISH VA OBODONLASHTIRISH**

Utkirbek Gaymatov Maxamadjonovich


Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada tarixiy yodgorliklarni asrab qolish, ularni qayta tamirlash ustida olimlar tomonidan izlanishlar olib borilayotganligi, qo‘shni davlatlar bilan xamkorlikda tashqi ofatlardan saqlab qolish uchun tuzilayotgan ish rejalari ko‘rib chiqiladi.*

ANNOTATSIYA: *V dannoy statye uchyonyimi provodyatsya issledovaniya po soxraneniyu istoricheskix pamyatnikov, ix restavratsii, a takje sostavlyayutsya plany rabot v sotrudnichestve s sosednimi stranami po ix zauyte ot vneshnix kataklizmov.*

ABSTRACT: *In this article, scientists are conducting research on the preservation of historical monuments, their restoration, and also drawing up work plans in cooperation with neighboring countries to protect them from external disasters..*

O‘rta O‘siyo jumladan O‘zbekiston xududi eng qadimiy madaniyat o‘chog‘i desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi bir necha ming asrlardan buyon saqlanib rivojlanib kelayotgan ma‘naviy-madaniy yodgorliklar meroslariga boy.



Madaniy merosni kelajak avlodlar uchun asrab avaylash muxim vazifa xisoblanadi. Bu jarayon tarixiy inshootlarni tiklash, ularni asl ko‘rinishini saqlab qolish va zamonaviy sharoitlarga moslashtirish, tarixiy madaniy qadriyatlarni ezozlashdan iborat. Qadimiy meroslarni rekonstruksiya qilishning ahamiyati shundan iboratki: qadimiy me‘moriy yodgorliklar jamiyatning madaniy-ijtimoiy va muxandisli taraqqiyotini aks ettiruvchi o‘tmishning noyoob dalilidir. Ularni tamirlash va tiklar quyidagi jixatlarga ega: Madaniy merosni asrab-avaylash: tarixiy xotiraning davom etishini va milliy o‘zlikni shakllantirishni ta‘minlaydi qolaversa madaniy urf-odtlarimiz davom etadi. Turistik diqqatga sazovor joylar, Qayta tiklangan yodgorliklar sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Tarix, me‘morchilik va arxeologiyani o‘rganishda yordam beradi.

Tarixiy yodgorliklarni rekonstruksiya qilishda bir necha qadamlarni oz ichiga oladi. Avvalom bor obyektни Tadqiqot qilinadi va tahlili korib chiqiladi, bunda Arxeologik qazishmalar, tarixiy hujjatlarni tekshirish va ilmiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Qayta

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

tamirlash ishlari olib borilayotganda aloxida diyan ishlari olib boriladi: Tarixiy ma'lumotlar va zamonaviy qurilish me'yorlarini hisobga olgan holda arxitektura loyihalarini yaratish, qo'shimchalar kiritish, nusxa olish. O'rganishlar jarayonida iqlim va tabiiy ofatlarning ro'li ko'rib chiqiladi: tuzilmalarni mustahkamlash, yo'qolgan elementlarni tiklash va keyingi yuz beradigan zararladan himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Tamirlash ishlari olib boorish jarayonida o'z ishlarining mutaxasislari obdon o'rganib xatto jaxon miqyosidagi ko'zga ko'ringan tarixiy muzey va obidalarini qayta tamirlash va ularni umrini uzaytirish sirlarini borib o'rganib kelishmoqda va xatto xamkorlikda bir qancha ishlar olib borilayotganini ming tepa yodgorligi misolida korishimiz mumkun.¹ Agar qo'shni davlatlardan misollarni ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Rimdagi Kolizey (Italiya): Doimiy tarzda olib boriladigan restavratsiya ishlari ushbu ramziy binoni saqlab qolish imkonini beradi.

Petra (Iordaniya): Qadimgi shaharning qayta tiklanishi har yili millionlab sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi.

Moskvadagi Qizil maydon (Rossiya): Ushbu tarixiy markazni rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish uni Rossiyaning eng taniqli ramzlaridan biriga aylantiradi.

Yurtimizning bir qator olimlari xam maqtovg'a sozovor ilmiy izlanishlarini amalga oshirganlar jumladan Taniqli olim Ya.G'.G'ulomov tomonidan yozilgan asarlarida O'zbekistonning moddiy madaniyat yodgorliklarini asrash va muhofaza qilish masalalari o'z ifodasini topgan. Biz tadqiqotlar olib borayotgan mavzu yuzasidan ko'plab olimlar tomonidan, xususan ularning ilmiy ishlari kontekstida, shuningdek Buxoro, O'rta Osiyo va O'rta Sharq me'morchiligida deyarli alohida e'tibor bilan ko'rib chiqilgan.² Bu ilmiy ishlarning ko'plari, masalan tadqiqotchi-olim, bir qancha ta'mirlash ishlari muallifi va ishtirokchisi K.S.Kryukovning biz uchun qimmatli ma'lumotlarni jamlangan maqolalari Buxoro obidalarini ilk ta'mirlash jarayonlari haqida dastlabki aniq va muhim manbalarni yoritib beradi³. Shuningdek, me'mor tadqiqotchi V.A.Lavrovning «Gradostroitelnaya kultura Sredney Azii» tadqiqotimizning ma'lum qismlaridan biri sifatida katta qiziqish uyg'otadi. Bu yerda muallif O'rta Osiyo hududidagi ilk shaharsozlik ko'rinishlari bilan bir qatorda, Shayboniylar davri shaharsozligi rivoji va uni qurilishidagi taraqqiy etish dinamikasini yorqin ochib beradi⁴. Binolarning xarobalar ostida qolganini va koplal asori atiqalarni kashf qilganlar. Arxiolog va qayta tamirlovchilarning orni va qilgan xizmatlari taqsiinga sazovor. Ularning izlanishlari natijasida bedor o'tqazgan tunlari orqali biz yosh avlod o'tmishga sayoxat qila olamiz.

Yodgorliklarni loyixalashda ularni qayta tamirdan o'tkazilayotganda demontaj ishlari olib boriladi. Jiddiy shikast yetgan avariyniy xolatdagi binolarni buzib tashlash yoki qayta tamirlash va o'z xoliga qaytarish modernizatsiya qilish rejalari ko'rib chiqiladi. Yaroqsiz komunal tarmoqlarni olib tashlanadi. Qadimgi binolarni saqlab qolish uchun turli texnologiyalar va usullar qo'llaniladi. Bu erda asosiy echimlardan biri Tuzilmalarni mustahkamlash uchun maxsus

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

echimlar, qatronlar in'ektsiyalari va mustahkamlash kabi zamonaviy materiallar qo'llaniladi. Hidroizolyatsiya tizimida esa korroziya va buzilishning oldini olish uchun suvdan himoya qiladi.

Qadimiy binolarni qayta tiklashda o'z kasbini mohirlari tomonidan Ba'zida yodgorlikning yaxlitligini saqlab qolish uchun vayron qilingan elementlar tiklanadi. Mana shunday talofatlarga yuz tutmasligi uchun ayrim tarixiy yodgorliklarda tashrif buyuruvchilarga maxsus to'siqlar o'rnatiladi. Shu tariqa obidalarni saqlab qolish imkoniyatlari oshadi. Gumbazlarni va ayvonlarni iqlim tasiridan ya'ni yog'ingarchilik va quyosh nurlaridan saqlash maqsadida maxsus ximoya tizimlari bilan o'rab chiqiladi. Binolarning barqarorligini davom ettirish maqsadida muntazam tekshiruvlar, ekspertizalar olib boriladi. Tabiiy ofatlardan himoya qilish, zilzilaga chidamli texnologiyalarni o'rganib chiqib ularni amalda qo'llash, seysmik faol hududlarda inshootlarni mustahkamlash, Drenaj tizimlari; toshqindan himoya qilish chora tadbirlari aloxida ko'rib chiqiladi. Bizlarga yodgorlik bo'lib qolgan xar bir asori-atiqalarni saqlash maqsadida xar-bir kichik detallarigacha olimlar va izlanuvchilar tomonidan sinchiklab o'rganib chiqiladi. Kelajak avlodga beshikast yetkazish maqsadida tunu-kun mehnatlarini ayamay xizmatda bo'ladilar.

Xulosa

Qadimiy arxitekturaning rekonstruksiya qilish va takomillashtirish katta resurslarni talab qiladi, lekin tarixiy merosni saqlashda asosiy ro'l o'ynaydi. Bu murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli soha mutaxassisleri: me'morlar, arxeologlar, tarixchilar va muhandislarning hamkorligini talab qiladi. Yodgorliklarni tiklash kelajak uchun mustahkam poydevor yaratish bilan birga o'tmishni saqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi Ya. G'ulomov nomidagi arxeologiya instituti S.s. suyunov, M.M. Caidov o'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi kitob tumani qashqadaryo viloyati 5 – tom
2. 5 G'ulomov Ya. O'zbekistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, o'rganish yo'llari. – Toshkent, 1934. B.
3. Lavrov V.A. Gradostroitelnaya kultura Sredney Azii (s drevneyshix vremyon do vtoroy poloviny XIX veka).- M.: Gosudarstvennoye izdatelstvo arxitektury i gradostroitelstva, 1950. S.179
4. Kryukov K.S. Organizatsionnye formy ohrany i restavratsii pamyatnikov arxitektury Uzbekistana (1920- 1990).// ASU, 1990, № 8. S. 34-36
5. Adilov, Z., U. Gaymatov, and Z. Mamajanova. "THE USE OF MEDICINAL PLANTS IN LANDSCAPE ARCHITECTURE PROJECTS IN OUR COUNTRY AND ARTISTIC SOLUTION OF IT." Science and innovation 2.C1 (2023): 34-37.
6. Adilov, Z., and Z. Mamajanova. "THE ROLE AND FUNCTIONS OF CITY DITCHES TODAY." Science and Innovation 1.6 (2022): 339-342.